



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA VAQT BILDIRUVCHI IBORALARNING SEMANTIK TAHLILI

Rustamova Shaxnoza Ilhomovna

Samarqand davlat chet tillari instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tilida vaqt ma’nosini ifodalovchi iboralarning semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Vaqt bildiruvchi iboralar til sohiblarining borliqni anglash tarzi, hayotiy tajribasi va milliy tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda shakllangani asoslanadi. Maqolada mazkur iboralarning ma’no tarkibi, ko‘chma ma’no hosil qilish usullari, nutqdagi ekspressiv-emosional imkoniyatlari hamda turli funksional uslublarda qo‘llanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, vaqt bildiruvchi iboralar orqali vaqtning tez o‘tishi, kechikishi, fursatning qadri, zamon o‘zgarishi kabi tushunchalarning obrazli ifodalanishi misollar asosida ko‘rsatiladi. Tahlil natijalari vaqt bildiruvchi iboralar o‘zbek tili frazeologik tizimining muhim qatlamini tashkil etib, xalqning dunyoqarashi va milliy-madaniy tajribasini aks ettirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: vaqt konsepti, frazeologizm, semantika, uslubiy xususiyat, ko‘chma ma’no, funksional uslub, ekspressivlik, milliy-madaniy xususiyat, til manzarasi.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВРЕМЕННЫХ ВЫРАЖЕНИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Рустамова Шахноза Илхомовна

Самаркандский государственный институт иностранных языков, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье анализируются семантические и стилистические особенности выражений, обозначающих время в английском и узбекском языке. Обосновывается, что формирование временных выражений тесно связано со способом восприятия мира носителями языка, их жизненным опытом и национальным мышлением. В статье освещаются семантическая структура этих выражений, способы образования переносного значения, их экспрессивно-эмоциональные возможности в речи, а также особенности употребления в различных функциональных стилях. Кроме того, на примерах показано образное выражение таких понятий, как быстротечность времени, запаздывание, ценность момента, изменение эпохи через временные выражения. Результаты анализа показывают, что выражения, обозначающие время, составляют важный слой фразеологической системы узбекского языка и отражают мировоззрение и национально-культурный опыт народа.

Ключевые слова: концепт времени, фразеологизм, семантика, стилистическая особенность, переносное значение, функциональный стиль, экспрессивность, национально-культурная особенность, языковая картина мира.

SEMANTIC ANALYSIS OF TIME EXPRESSIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Rustamova Shaxnoza Ilhomovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the semantic and stylistic features of expressions denoting time in the English and Uzbek languages. It substantiates that time-related expressions are formed in close connection with speakers' perception of reality, their life experience, and national thinking. The paper examines the semantic structure of these expressions, the ways of forming figurative meanings, their expressive and emotional potential in speech, as well as their usage across different functional styles. In addition, the article demonstrates, through examples, the figurative representation of such concepts as the rapid passage of time, delay, the value of a moment, and changes in an era. The results of the analysis show that time-related expressions constitute an important layer of the phraseological system of the Uzbek language and reflect the worldview and national-cultural experience of the people.

Keywords: concept of time, phraseologism, semantics, stylistic feature, figurative meaning, functional style, expressiveness, national-cultural characteristic, linguistic worldview.

Har bir millat frazeologik qatlamida muayyan xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, ruhiyati va borliqqa munosabati yorqin namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar orasida vaqt ma'nosini ifodalovchi iboralar alohida o'rin tutadi, chunki vaqt inson hayoti, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy tafakkuri bilan bevosita bog'liq bo'lgan kategoriyalardan biridir.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham vaqt bildiruvchi iboralar nafaqat muayyan vaqt kesimini anglatadi, balki vaqtga nisbatan xalqona munosabat, baholash, ogohlantirish, sabr, shoshilish, kechikish yoki fursatni qadrlash kabi ma'no qirralarini ham ifoda etadi. Masalan, bunday iboralar orqali vaqtning tez o'tishi, muayyan ishning o'z vaqtida yoki kech bajarilishi, uzoq kutilgan holat kabi tushunchalar obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalanadi. Shu bois vaqt bildiruvchi iboralarni o'rganish tilning nafaqat semantik tizimini, balki uning uslubiy va lingvomadaniy imkoniyatlarini ham ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnda vaqt bildiruvchi iboralar obrazlilik va ta'sirchanlikni kuchaytirsa, publitsistik nutqda fikrning lo'nda, ta'sirli va xalqchil ifodalanishiga xizmat qiladi. So'zlashuv uslubida esa vaqt bildiruvchi iboralar muayyan xalq tiliga tegishli nutqning tabiiyligi, emotsionalligini ta'minlaydi. Shu jihatdan ularning semantik tuzilishi, matndagi yangi ma'no qirralarini namoyon etishini tadqiq etish dolzarb sanaladi. O'zbek tilida vaqt bildiruvchi iboralarning semantik xususiyatlari va uslubiy vazifalarini tahlil qilish muayyan matndan vaqt ma'nosini ifodalovchi iboralarni ajratish, ularning ma'no guruhlarini belgilash, nutqdagi ekspressiv-uslubiy imkoniyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Har qanday tilning frazeologik tizimida vaqt ma'nosini ifodalovchi iboralar alohida semantik maydonni tashkil etadi. Ular orqali insonning vaqt haqidagi tasavvuri, uning tezligi yoki sekinligi, muayyan voqea-hodisaning davomiyligi, fursatning qadri, kechikish yoki shoshilish kabi holatlar obrazli tarzda ifodalanadi. Vaqt bildiruvchi iboralarning ma'nosi, odatda, to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ko'chma ma'noda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ular vaqtni nomlashdan ko'ra, unga nisbatan subyektiv munosabatni ifodalashi bilan ajralib turadi.

Vaqt ma'nosini bildiruvchi iboralarni semantik jihatdan bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga vaqtning tez o'tishini ifodalovchi iboralar kiradi. Masalan, **ko'z ochib yumguncha, hash-pash deguncha, dam o'tmay, ha demay, hali zamon, "ha-hu" deguncha** kabi frazeologik birliklar muayyan harakat yoki voqeaning juda qisqa vaqt ichida sodir bo'lganini anglatadi. Bunday iboralarda vaqtning obyektiv o'lchovidan ko'ra inson idrokidagi jadallik va tezkorlik ma'nolari ustuvor bo'ladi.

Masalan, **ko'z ochib yumguncha** iborasi "juda qisqa muddatda, tezda" ma'nosini ifodalab, **hash-pash deguncha, ha-hu deguncha** kabi iboralar bilan sinonimik munosabatga kirishadi [O'TFL, 253]. *Ko'z ochib yumguncha necha ming piyoda va suvori kishilar paydo bo'ldi* (A. Qahhor, "Bashorat").

Ingliz tilida **ko'z ochib yumguncha** iborasi ma'nosiga teng keluvchi quyidagi iboralar mavjud: **in the blink of an eye, in a flash, in a heartbeat, in no time, in an instant** kabi. Mazkur inglizcha iboralar vaqtning nihoyatda qisqaligini, harakatning tezda va kutilmagan tarzda sodir bo'lishini ifodalaydi. Masalan, tezkor voqea-hodisaning sodir bo'lishini ifodalovchi **in a flash** iborasi "Dictionary of American Idioms" lug'atida shunday ta'riflangan: "Fig. quickly; immediately. I'll be there in a flash. It happened in a flash. Suddenly my wallet was gone" [DAI, 331]. Ko'rinadiki, har ikkala tilda ham vaqt kategoriyasi frazeologizmlar orqali emotsional tarzda ifodalanadi.

Ikkinchi guruhga vaqtning sekin o'tishi yoki uzoq davom etishini bildiruvchi iboralar mansub. Masalan, **it azobi, ichini it tirnamoq, igna bilan quduq qazimoq** kabi iboralar vaqtning cho'ziqligi, kutilgan voqeaning kechikishi yoki muayyan holatning og'ir kechishini aks ettiradi [O'TFL, 194]. Bu kabi iboralarda vaqt miqdoriy jihatdan emas, balki ruhiy kechinma orqali baholanadi. *Boshqalar nina bilan quduq qazib, obi hayot chiqarsin, siz ichib ketavering, Zumradxon!* (Oybek, "Oltin vodiyan shabadalar").

Ingliz tilida mazkur **igna bilan quduq qazimoq** iborasi ma'nosiga teng keluvchi quyidagi iboralar mavjud: **like looking for a needle in a haystack, an uphill struggle/battle, a slow and steady process, labor over** kabi. **Like looking for a needle in a haystack** iborasi DAI da shunday ta'riflangan: "Fig. engaged in a hopeless search. Trying to find a white glove in the snow is like looking for a needle in a haystack. I tried to find my lost contact lens on the beach, but it was like looking for a needle in a haystack" [DAI, 405]. **Labor over** iborasiga esa quyidagicha izoh berilgan: "to work hard on someone or something. The surgeon labored over the patient for four hours. I labored over this painting for months before I got it the way I wanted it" [DAI, 383]. Demak, har ikkala tilda ham vaqt kategoriyasining sekin kechishini ifodalovchi iboralar insonning ruhiy holatini ham aks ettirar ekan.

Uchinchi guruh vaqtning o'rinli yoki o'rinsiz sarflanishini, fursatning qadrini anglatuvchi

fursatni boy bermoq, vaqti-soati yetganda, eldan burun nog'ora qoqmay, temirni qizig'ida bos, podadan oldin chang chiqarmoq kabi iboralardan tashkil topadi. Bunday iboralar xalqning vaqtga nisbatan pragmatik munosabatini ifoda etib, vaqtning inson hayotidagi ahamiyatini, uni tejash, qadrlash va undan samarali foydalanish g'oyasini o'zida mujassam etadi: *Xudo xohlasa, hal bo'lganda xabar beraman. Eldan burun nog'ora qoqmay deb batafsil yozmadim* (Anvar Suyun, "Go'bdin tog' hikoyalari").

Don't count your chickens before they hatch, don't jump the gun, don't get ahead of yourself, keep it under wraps kabi shoshqaloqlik bilan xulosa chiqarmaslik sememasini bildiruvchi ingliz tilidagi iboralar **eldan burun nog'ora qoqmay** frazeologizmi bilan umumiy semantik asosga ega. **Don't count your chickens before they hatch** iborasi DAI lug'atida kutilayotgan natijaga ishonch hosil qilmay turib oldindan reja tuzmaslik ma'nosiga teng kelishi ko'rsatilgan: "do not act as though something has turned out favorably for you until it has really turned out that way. Jill: When I get my raise, I'll use the extra money to go on vacation. Jane: But you don't know for sure that you're going to get a raise. Don't count your chickens before they are hatched" [DAI, 164].

To'rtinchi guruhga muayyan ish-harakatning vaqti kelgani yoki kechikkanini anglatuvchi iboralar kiradi. Masalan, **tosh boyladi, kezi kelganda, talqon yeb suvga yubormoq, tuyaning go'shtini yemoq** kabi iboralar muayyan jarayonning amalga oshish vaqtining chegarasini belgilaydi. Bu yerda vaqt nafaqat davomiylilik, balki jarayonning maqbul yoki nomaqbul pallasini, boshlanish yoki tugallanish doirasini ko'rsatadi. Ma'rifat.uz saytidan olingan misolga e'tibor qaratsak: *Farzandimiz singari o'quvchilarimiz bilan do'stona munosabatda bo'lish, ulardagi tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini qadrlash, kezi kelganida sirdosh, suhbatdosh bo'lib, har qanday sharoitda o'quvchilarimizdan beg'araz yordamimizni ayamalik lozim*.

Ish-harakatning ayni qulay paytda bajarilishini, zarur fursatda harakat qilish lozimligini aks ettiruvchi ingliz tilidagi **when the time is ripe, when the occasion arises, in due course, in due time, in good time, in the course of time, when necessary, at the right moment** kabi iboralar **kezi kelganda** iborasi ma'nosiga teng keladi. Xususan, **when the time is ripe** iborasiga DAI lug'atida shunday ta'rif berilgan: "Fig. at exactly the right time. I'll tell her the good news when the time is ripe. When the time is ripe, I'll bring up the subject again" [DAI, 753]. O'zbek va ingliz tillarida vaqtning to'g'ri baholanishi va harakatning o'rinli tashkil etilishi yuqoridagi frazeologik birliklar orqali nutqda namoyon bo'ladi.

Ko'rinadiki, vaqt bildiruvchi iboralar semantikasida tezlik, davomiylik, fursat, kechikish, navbat, zarurat va baholash kabi ma'no komponentlari o'zaro birikib keladi. Bu esa ularning semantik tuzilishi murakkab va ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi.

Vaqt ma'nosini ifodalovchi iboralar nutqda nafaqat nomlash vazifasini bajaradi, balki kuchli uslubiy-ekspressiv imkoniyatga ham ega. Ular funksional uslublarda turlicha vazifa bajaradi va matnning umumiy ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Badiiy uslubda vaqt bildiruvchi iboralar obrazlilik va tasviriylilikni kuchaytiradi. Yozuvchi yoki shoir muayyan voqeaning kechishi, qahramon ruhiyatidagi holat yoki hayot oqimini ta'sirchan ifodalash uchun ana shunday iboralardan foydalanadi. Masalan, **ko'z ochib yunguncha** iborasi voqeaning tez rivojlanganini ifodalasa, **it azobida kutish** qahramonning iztirobli holatini ochishga xizmat qiladi [O'TFL, 201]. Badiiy matnda bu kabi iboralar estetik vazifa bajarib, muallif uslubining ta'sirchanligini oshiradi. *Undan [Qalandarovdan] tezda tayinli bir ishora bo'lmagandan keyin Huriniso vinoni ichdi, lekin it azobida ichdi* (A. Qahhor, "Sinchalak"); *"Yuzboshi (tillani) yeganicha yebdi, yutolmay qolganidan keyin, o'g'rilar og'ziga zo'r lab tiqishibdi"*. *Siddiqjon kuldi: "Hammasini sizlarga tutdim", — desa, o'lar ekanmi?" — "Undoq deydigan odam emas edi-da. Xullasi, it azobida o'libdi"* (A. Qahhor, "Qo'sh chinor chiroqlari").

So'zlashuv uslubida vaqt bildiruvchi iboralar nutqning tabiiyligi, xalqchilligi va emotsionalligini ta'minlaydi. Masalan, **yetti uxlab tushida ham ko'rmaslik, otni qamchilamoq, igna bilan quduq qazimoq, ajalidan besh kun burun, ha deganda, ha demay, bir-ikki qovun pishig'i, paymonasi to'ldi, xo'roz qichqirmasdan, tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qor yog'ganda** kabi iboralar kundalik muloqotda keng qo'llanadi. Bunday holatda iboralar muloqot jarayonini jonlantiradi, fikrni sodda va ta'sirli yetkazish imkonini beradi. **Yetti uxlab tushiga kirmagan** iborasi Sh. Rahmatullayevning lug'atida "hech qachon ko'rmaslik" ma'nosini bildirishi hamda **yetti uxlab tushiga kirmaslik** iborasi bilan variantdoshlik hosil qilishi ko'rsatilgan. Ingliz tilida **not in a thousand years** yoki **never in a thousand years** iboralari yuqoridagi kabi ma'noga ega. DAI lug'atida uning izohi quyidagicha: "Fig. No, never! John: Will you ever approve of her marriage to Tom? Sue: No, not in a thousand years! Mary: Will all this trouble ever subside? John: Never in a thousand years!" [DAI, 456].

Publitsistik uslubda vaqt bildiruvchi iboralar ijtimoiy voqelikka munosabat bildirish, fikrni

ta'sirchan va ommabop tarzda bayon etish uchun qo'llanadi. Ayniqsa, matbuot tilida vaqtning qadri, zamon talabi, davr ruhi kabi tushunchalarni jonli ifodalashda ana shunday birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular publitsistik matnning kommunikativ-pragmatik kuchini oshiradi, o'quvchining diqqatini tortadi va muallif nuqtayi nazarini aniqlashtirib beradi. *Mening ham bu joylarda bir umr qolib ketish niyatim yo'q, ota-onam keksayib qolishdi, "kel" deb yotishibdi. Vaqti-soati yetganda ularning yoniga qaytib ketaman* (Saviya.uz).

Ingliz tilida mazkur semantik mazmunga yaqin bo'lgan **all in good time** iborasi ham ish-harakatning, voqea-hodisaning o'z vaqtida sodir bo'lishini kutish zarurligini anglatadi. Masalan: *When will the baby be born? — All in good time.* yoki *Mary: I'm starved! When will Bill get here with the pizza? Tom: All in good time, Mary* [DAI, 10]. Ushbu misollarda ibora suhbatdoshni shoshmaslikka undab, jarayonning tabiiy kechishini ta'kidlaydi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, har ikkala til publitsistik nutqida vaqt bildiruvchi frazeologizmlar matnda muallifning voqea-hodisaga baholovchi munosabatini ham ifodalovchi muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Vaqt ma'nosini ifodalovchi iboralar xalqning hayotiy tajribasi, turmush tarzi va milliy tafakkurini ham aks ettiradi. O'zbek tilida vaqt ko'pincha sabr, fursat, taqdir, navbat, baraka kabi tushunchalar bilan bog'liq holda anglashiladi. Shuning uchun vaqt bildiruvchi ayrim iboralarda milliy-madaniy munosabat yaqqol seziladi. Masalan, **hali zamon** iborasida "tez orada", "ko'p vaqt o'tmay" degan tushuncha mujassam. **Eldan burun** birligida esa amaliy hayot tajribasiga ko'ra "vaqtdan oldin", "barvaqt" ma'nosi ustuvordir. Shuningdek, vaqt bildiruvchi iboralarda insonning ruhiy holati bilan vaqt o'rtasidagi bog'liqlik ham namoyon bo'ladi. Quvonchli paytda vaqtning tez o'tishi, mashaqqatli yoki kutilgan vaziyatda esa cho'zilib ketishi xalq tilidagi iboralarda juda tabiiy ifoda topgan. Bu hol tilda vaqtning faqat obyektiv hodisa emas, balki inson ongi va his-tuyg'ulari bilan bog'liq subyektiv kategoriya sifatida ham talqin qilinishini ko'rsatadi.

Frazeologik birliklarning muhim belgilaridan biri ularning ekspressivligidir. Vaqt ma'nosini ifodalovchi iboralarda ham bu xususiyat kuchli seziladi. Chunki bunday birliklar orqali vaqt haqidagi tasavvur jonli, ta'sirchan va obrazli shaklda ifoda etiladi. Masalan, **ko'z ochib yumguncha** iborasi oddiy **tezda** so'ziga nisbatan kuchliroq ta'sirga ega. Xuddi shunday, **ko'zi to'rt bo'lib kutmoq** ifodasi **uzoq kutmoq** ma'nosini nafaqat kuchaytiradi, balki ruhiy holatni ham tasvirlaydi. Ekspressivlik vaqt bildiruvchi iboralarning uslubiy qimmatini oshiradi. Ayniqsa, badiiy va publitsistik matnlarda bunday iboralar nutqqa obrazlilik, hissiylik va baholovchanlik bag'ishlaydi. Natijada vaqt tushunchasi quruq axborot sifatida emas, balki ta'sirchan ma'no birligi sifatida qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillarida vaqt bildiruvchi iboralar xalqning vaqt haqidagi tasavvuri, hayotiy kuzatuvlari va milliy-madaniy tajribasini o'zida mujassam etgan muhim frazeologik qatlamni tashkil etadi. Ularning semantikasida vaqtning tezligi, davomiyligi, fursat, kechikish, navbat va baholash kabi ma'no qirralari mujassamlashgan. Mazkur iboralar nutqda nomlash vazifasi bilan birga, obrazlilik, ekspressivlik va ta'sirchanlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ham vaqt bildiruvchi iboralar badiiy, so'zlashuv va publitsistik uslublarda faol qo'llanib, matnning uslubiy qimmatini oshiradi. Ular orqali vaqtga nisbatan xalqona munosabat, sabr, shoshilish, kechikish, fursatni qadrlash kabi ma'no va baholar ifoda etiladi. Shu bois vaqt bildiruvchi iboralarni semantik-uslubiy jihatdan o'rganish o'zbek va ingliz tili frazeologiyasining imkoniyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
2. Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977.
3. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – М.: Просвещение, 1993.
4. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986.
5. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Mamatov A. E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. – Toshkent: Fan, 1999.
7. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.